

ISHLAB CHIQRISH KORXONALARIDA TOVAR MODDIY ZAHIRALAR HARAKATINI HUJJATLASHTIRISH

DOCUMENTATION OF INVENTORY MOVEMENT IN MANUFACTURING ENTERPRISES

¹Ibragimov Mansur
Mardonovich,

²Qurbonov Muhammadali
Bahodirovich

¹Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti, ²Samarqand
iqtisodiyot va servis instituti, "Buxgalteriya hisobi" ta'lim
yo'nalishi bitiruvchi talabasi

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Mazkur ilmiy maqolada ishlab chiqarish korxonalarida tovar moddiy zahiralari (TMZ) harakatini hujjatlashtirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinib, TMZlarning korxonada faoliyatidagi ahamiyati, ularni tasniflash usullari, harakatining asosiy bosqichlari hamda bu jarayonlarni hujjatlashtirishning huquqiy-me'yoriy asoslari o'rganilgan. Maqolada elektron hujjat aylanishi va raqamlashtirishning afzalliklari, shuningdek, hujjatlashtirishning ichki nazorat, tahlil va auditdagi o'рни atroflicha ko'rib chiqilgan va korxonalar uchun samarali hujjatlashtirish tizimini yaratish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Eng. - This scientific article analyzes the theoretical and practical aspects of documenting the movement of inventories in manufacturing enterprises. It examines the importance of inventories in enterprise activities, methods of their classification, the main stages of their movement, as well as the legal and regulatory framework for documenting these processes. The article also discusses the advantages of electronic document management and digitalization, and thoroughly considers the role of documentation in internal control, analysis, and auditing. Additionally, practical recommendations are provided for enterprises to establish an effective documentation system.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ tovar moddiy zahiralari, hujjatlashtirish, ichki nazorat, elektron hujjat aylanishi.

❖ inventory, documentation, internal control, electronic document management.

Kirish.

Ishlab chiqarish korxonalarida tovar moddiy zahiralari (TMZ) harakatini samarali boshqarish va hujjatlashtirish moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligini kafolatlash va boshqaruv qarorlari samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biridir. TMZ nafaqat ishlab chiqarish jarayonining moddiy

asosi, balki korxonaning aylanma mablag'larining sezilarli qismini tashkil etuvchi aktivdir. Ular hisobining to'g'ri yuritilishi, saqlanishi va harakatini to'liq hamda puxta hujjatlashtirish moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Hujjatlashtirish jarayonlaridagi har qanday kamchiliklar samarasiz qarorlar qabul qilinishiga,

resurslarning noto'g'ri taqsimlanishiga, ichki nazoratning susayishiga va oxir-oqibat korxonaning moliyaviy natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar asosida, xususan, "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonun, buxgalteriya hisobining milliy standartlari (BHMS) va boshqa tegishli nizomlarda TMZ hisobini yuritish va hujjatlashtirishga qat'iy talablar qo'yilgan. Ushbu qoidalarga rioya qilish korxonalar uchun nafaqat qonuniy majburiyat, balki samarali boshqaruv uchun ham zarur shartdir. Mazkur maqolaning maqsadi ishlab chiqarish korxonalarida TMZ harakatini hujjatlashtirishning barcha bosqichlarini atroflicha o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni hal etish bo'yicha tavsiyalar berishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Korxonalarda tovar moddiy zahiralalar (TMZ) harakatini hujjatlashtirish masalasi buxgalteriya hisobi nazariyasi va amaliyotida keng yoritilgan bo'lib, xorijiy va mahalliy adabiyotlarda bu masalaning turli jihatlari o'rganilgan.

O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi huquqiy-me'yoriy hujjatlar majmuasi ushbu yo'nalishning asosini tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2002-yil 14-noyabrdagi 132-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan 4-sonli buxgalteriya hisobining milliy standarti (BHMS) "Zahiralalar" (Inventories) [2] TMZni baholash, hisobga olish va hisobotlarda aks ettirish bo'yicha asosiy qoidalarni belgilaydi. Bu standartda xorijiy valyutada sotib olingan zahiralarning qiymatini so'mda Markaziy bank kursi bo'yicha hisoblash tartibi, shuningdek, qayta sotish uchun chetdan olib kelingan tovarlarning hisobi va ularga bog'liq xarajatlarning davr xarajatlari sifatida tan olinishi kabi muhim jihatlari batafsil ko'rsatilgan. Bu esa TMZning bahosi va

moliyaviy natijalarga ta'siri masalasida fundamental ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi tizimini belgilovchi boshqa me'yoriy hujjatlar ham mavjud. Masalan, 2020-yil 30-iyundagi 3259-sonli hujjatda [5] moddiy boyliklarni qabul qilish uchun ishonchnoma shakllari, ularni rasmiylashtirish va ro'yxatdan o'tkazish jurnalining namunalari berilgan. Bu hujjatlar TMZni qabul qilish jarayonining shaffofligini va nazoratini ta'minlashda bevosita amaliy ahamiyatga ega. Xususan, mazkur hujjatda keltirilgan ishonchnoma shakli, unda ko'rsatiladigan ma'lumotlar, jumladan, oluvchining shaxsiy ma'lumotlari, yetkazib beruvchi nomi, shartnoma raqamlari va qabul qilinadigan tovarlarning aniq ro'yxati, hujjatlashtirishning qanchalik batafsil bo'lishi kerakligini ko'rsatadi.

M. Karimov, Sh. Xo'jayevlar tomonidan yozilgan "Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot" [7] darsligi TMZ hisobining nazariy asoslari va amaliyotini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Darslikda TMZ harakatini hujjatlashtirishning asosiy bosqichlari, shuningdek, turli buxgalteriya yozuvlari batafsil berilgan.

Biroq, mavjud adabiyotlar va me'yoriy hujjatlarda TMZlar harakatini hujjatlashtirishning ba'zi jihatlari yetarlicha yoritilmagan. Xususan, O'zbekiston sharoitida elektron hujjat aylanishi va raqamlashtirishni joriy etish, ularning samaradorligi, yuzaga keladigan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari chuqur o'rganilmagan.

Xulosa qilib aytganda, mavzuga oid adabiyotlar va me'yoriy hujjatlar TMZ hisoboti va hujjatlashtirishining asosiy tamoyillarini va mexanizmlarini belgilab bergan bo'lsada, zamonaviy texnologik yechimlarning chuqur tahlili va ularni mahalliy sharoitlarga tatbiq etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zaruriyati mavjud. Ushbu maqolada TMZlar harakati bo'yicha elektron hujjat aylanishi va

raqamlashtirishning ahamiyatini ko'rsatishga urinish qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqot ishlab chiqarish korxonalarida tovar moddiy zahiralari (TMZ) harakatini hujjatlashtirish masalasini kompleks yondashuv orqali tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotda quyidagi metodologik tamoyillar qo'llaniladi:

- ❖ Tizimli yondashuv: TMZ harakatini hujjatlashtirish jarayonini yagona tizim sifatida ko'rib chiqish, uning barcha bosqichlari (xarid qilish, saqlash, ishlab chiqarishga berish, sotish) o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilish.

- ❖ Qiyosiy tahlil: O'zbekiston Respublikasining mavjud milliy buxgalteriya standartlari (MBS) talablarini xalqaro buxgalteriya standartlari (IFRS) talablari bilan qiyosiy tahlil qilish.

- ❖ Normativ-huquqiy hujjatlar tahlili: "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonun va MBS 4-son asosida TMZ harakatini hujjatlashtirishning huquqiy asoslarini o'rganish.

- ❖ Sintetik va analitik yondashuv: TMZ harakatining har bir bosqichini alohida tahlil qilish va keyin ularni yagona tizimga birlashtirish.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

TMZ korxonaning faoliyat turiga qarab xomashyo va materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar, yoqilg'i, ehtiyot qismlar, inventar va xo'jalik anjomlari, tayyor mahsulot va tovarlar kabi turlarga bo'linadi.

TMZ korxonaning faoliyat turiga qarab bir necha guruhga bo'linadi. Quyidagi 1-jadvalda O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan hisob rejasiga muvofiq TMZ turlari va hisobraqamlari keltirilgan.

1-jadval


Korxonalarda TMZ turlari*

| TMZ turi | Misollar | Hisobraqami (O'zR BHMS) |
|--------------------------------|--------------------------------------|-------------------------|
| Xomashyo va materiallar | Metall, yog'och, kimyoviy moddalar | 1010 |
| Yarim tayyor mahsulotlar | Qisman qayta ishlangan buyumlar | 2110 |
| Tayyor mahsulot | Sotishga tayyor buyumlar | 2810 |
| Tovarlar | Qayta sotish uchun xarid qilinganlar | 2910 |
| Ehtiyot qismlar | Mashinalar uchun ehtiyot qismlar | 1080 |
| Yoqilg'i | Benzin, dizel yoqilg'isi, gaz | 1050 |
| Inventar va xo'jalik anjomlari | Asbob-uskunalar, kiyim-kechak | 1090 |

*Manba: O'zR BHMS 4-son "Zahiralar", Moliya vazirligi 132-sonli buyrug'i (2002).

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar korxonada buxgalteriya o'tkazmalarini (provodkalarini) to'g'ri va tizimli shakllantirish uchun muhim poydevor vazifasini bajaradi. TMZ turlarining aniq hisobraqamlarga (masalan, xaridda 1010, ishlab chiqarish yakunida 2810) ajratilishi moliyaviy hisobotlarning aniqligi va ishonchligini oshiradi. Bu esa o'z navbatida balans ko'rsatkichlarining haqqoniy aks ettirilishini ta'minlaydi hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi BHMS 4-sonli standartiga muvofiq, har bir TMZ turi o'zining iqtisodiy mazmunidan kelib chiqib tegishli hisobvaraqlar kesimida guruhlanadi. 1-rasmda ishlab chiqarish korxonalarida TMZ tarkibiy tuzilmasining taxminiy taqsimoti keltirilgan bo'lib, unda xomashyo va materiallar asosiy ulushni egallashi ko'rsatilgan. Odatda, ushbu toifa umumiy TMZ qiymatining 35-40 foizini tashkil etib, ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi.



1-rasm. Ishlab chiqarish korxonasi TMZ tarkibiy tuzilmasi (foizda)

1-rasmda diagramma ishlab chiqarish korxonalarida Tovar-moddiy zahiralarning (TMZ) foiz hisobidagi tarkibiy tuzilishini aks ettiradi. Grafikdan korxonaning aylanma mablag'lari qaysi yo'nalishlarda taqsimlanganini tahlil qilish mumkin:

❖ Xomashyo va materiallar (38 foiz): Bu eng katta ulush bo'lib, korxonaning asosiy mablag'lari ishlab chiqarish jarayonini boshlash uchun zarur bo'lgan xomashyo zaxiralariga yo'naltirilganini ko'rsatadi.


❖ Tayyor mahsulot (25 foiz): Ishlab chiqarib bo'lingan, lekin hali sotilmagan mahsulotlar zaxirasi. Bu ko'rsatkichning yuqoriligi mahsulot aylanish tezligiga bevosita ta'sir qiladi.

❖ Yarim tayyor mahsulotlar (16 foiz): Bir bosqichda ishlab chiqarish yakunlangan, biroq keyingi bosqichga tayyor holatdagi oraliq mahsulotlar.

❖ Ehtiyot qismlar (10 foiz): Texnika va uskunalarni ishchi holatda saqlash uchun zarur bo'lgan butlovchi qismlar.

❖ Yoqilg'i (6 foiz) va Inventar (5 foiz): Yordamchi xarajatlar va xo'jalik anjomlari ulushi nisbatan kamroqni tashkil etadi.

Hujjatlashtirish jarayoni to'rt asosiy bosqichdan iborat bo'lib, har bir bosqich uchun alohida hujjatlar to'plami mavjud. 2-rasmda ushbu bosqichlarning taqsimoti ko'rsatilgan.



2-rasm. TMZ harakatini hujjatlashtirish bosqichlari

2-rasmda TMZ (Tovar-moddiy zahiralari) harakatini hujjatlashtirish bosqichlari taqsimoti doiraviy diagramma ko'rinishida ifodalangan. Unda korxonadagi moddiy qiymatliklar aylanishining asosiy 5 ta bosqichi va ularning jarayondagi ulushi ko'rsatilgan:

1. Xarid qilish (Kirim) – 25 foiz. Bu bosqichda xomashyo yoki tovarlarni yetkazib beruvchilardan qabul qilib olish va ularni birlamchi hujjatlar (invoys, yuk xati) asosida kirim qilish jarayoni nazarda tutiladi.

2. Saqlash (Ombor) – 20 foiz. Zaxiralarni omborga joylashtirish, ularning butligini ta'minlash va moddiy javobgarlikni belgilash bosqichi.

3. Ishlab chiqarishga berish – 25 foiz. Xomashyo va materiallarni bevosita mahsulot

tayyorlash jarayoniga yo'naltirish. Bu bosqich tannarx shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

4. Tayyor mahsulot hisobi – 15 foiz. Ishlab chiqarish jarayoni yakunlanib, tayyor bo'lgan mahsulotlarni omborga qabul qilish va ularning sifat/miqdor hisobini yuritish.

5. Sotish (Chiqim) – 15 foiz. Tayyor mahsulotlarni iste'molchilarga realizatsiya qilish va ularni balansdan chiqarish bosqichi.

Rasmdan ko'rinib turibdiki, TMZ harakatida eng ko'p hujjat aylanishi va operatsiyalar Xarid qilish va Ishlab chiqarishga berish (har biri 25 foizdan) bosqichlariga to'g'ri keladi. Bu esa korxonada resurslarni jalb qilish va ulardan foydalanish jarayonlari eng ko'p nazorat talab qiladigan bo'g'inlar ekanligini anglatadi.

2-jadval

TMZ harakatini hujjatlashtirishning to'liq ro'yxati

| # | Bosqich | Hujjat nomi | Me'yoriy asos |
|----|------------------|--------------------------------|-------------------------|
| 1 | Xarid qilish | Shartnoma, Hisob-faktura | FV Qonuni, BHMS 4 |
| 2 | Xarid qilish | Yuk xati (TTN) | 3259-son, 2020 y. |
| 3 | Xarid qilish | Ishonchnoma (M-2, M-2a) | 3259-son, 2020 y. |
| 4 | Xarid qilish | Kirim orderi (M-4) | MV 132-son, 2002 y. |
| 5 | Saqlash | Ombor hisob kartochkasi (M-12) | MV 132-son, 2002 y. |
| 6 | Saqlash | Inventarizatsiya ro'yxati | BHMS 4, 19-modd. |
| 7 | Ishlab chiqarish | Talab-xabarnoma (M-11) | MV 132-son, 2002 y. |
| 8 | Ishlab chiqarish | Limit-zagorod kartasi (M-8) | MV 132-son, 2002 y. |
| 9 | Sotish | Hisob-faktura (SF), TTN | Soliq kodeksi |
| 10 | Sotish | Bank to'lov hujjatlari | Markaziy bank qoidalari |

2-jadvalda TMZ (Tovar-moddiy zahiralari) harakatini hujjatlashtirishning to'liq ro'yxati va ularning me'yoriy-huquqiy asoslarini aks ettiradi. Bu ma'lumotlar buxgalteriya hisobini yuritish va audit tekshiruvlari uchun asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Xarid qilish (Kirim) bosqichi - bu bosqichda TMZ yetkazib beruvchidan qabul qilish bilan bog'liq barcha hujjatlar rasmiylashtiriladi. O'zbekiston Respublikasining 3259-sonli qaroriga (2020-yil 30-iyun) muvofiq, moddiy boyliklarni qabul qiluvchi shaxsga ishonchnoma berilishi va

ushbu ishonchnoma qat'iy tartibda ro'yxatdan o'tkazilishi shart.

BHMS 4-son "Zahiralari"ning 7-moddasiga ko'ra, TMZ dastlabki qiymatda - ya'ni sotib olish narxi va barcha bevosita xarajatlar (transport, yuk tushirish, bojxona to'lovlari va boshqalar) yig'indisida hisobga olinadi. Xorijiy valyutada sotib olingan TMZ qiymati Markaziy bank rasmiy kursi bo'yicha so'mga aylantiriladi.

Kirim orderi (M-4 shakl) - asosiy birlamchi hujjat bo'lib, unda yetkazib beruvchi, miqdor, narx, umumiy qiymat va omborchi imzosi ko'rsatilishi shart. Arizalardagi miqdor

va hisob-fakturadag miqdor farqi bo'lsa, farqlar dalolatnoma orqali rasmiylashtiriladi.

Saqlash bosqichi - omborda TMZ saqlash davomida ombor hisob kartochkasi (M-12 shakl) yuritiladi. Ushbu kartochkada har bir nomenklatura bo'yicha kirim, chiqim va qoldiq ko'rsatkichlari kundalik asosda qayd etiladi.

BHMS 4-sonning 19-moddasiga muvofiq, kamida yilda bir marta inventarizatsiya o'tkazilishi majburiy hisoblanadi. Inventarizatsiya komissiyasi tarkibi rahbar buyrug'i bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak. Inventarizatsiya natijalarida ortiqcha yoki kamomad aniqlanganda, ular BHMS 4-son va korxonalar ichki qoidalariga ko'ra hisobga olinadi.

Ishlab chiqarishga berish bosqichi - materiallarni ishlab chiqarishga berish uchun talab-xabarnoma (M-11 shakl) yoki limit-zagorod kartasi (M-8 shakl) rasmiylashtiriladi. Limit-zagorod kartasi - ishlab chiqarish bo'limiga bir oy davomida berilishi mumkin bo'lgan materiallarning belgilangan limitini o'z ichiga oladi.

TMZ ishlab chiqarishga berilganda dastlabki qiymatidan chiqarib yuboriladi va

tayyor mahsulot tannarxiga kiritiladi. BHMS 4-son 20-22-moddalariga muvofiq, TMZ chiqarilishida quyidagi baholash usullaridan biri qo'llanilishi mumkin:

- ❖ FIFO usuli (birinchi kirgan - birinchi chiqadi);
- ❖ O'rtacha og'irlik narxi usuli;
- ❖ Aniq identifikatsiya usuli (qimmatbaho TMZ uchun).

Sotish bosqichi - tayyor mahsulotni sotishda sotish shartnomasi, hisob-faktura (elektron shaklda - elektron faktura), yuk xati va bank to'lov hujjatlari rasmiylashtiriladi. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 257-moddasiga muvofiq, QQS to'lovchisi bo'lgan korxonalar elektron hisob-fakturani (e-hisob-faktura) rasmiylashtirishi shart.

TMZ Baholash Usullari (BHMS 4-son asosida)

TMZ baholash usulini to'g'ri tanlash korxonaning moliyaviy natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. 3-jadvalda O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq ruxsat etilgan usullar taqqoslanadi.

3-jadval

TMZlarni baholash usullarining qiyosiy tahlili*


| Baholash usuli | Mohiyati | Afzalligi | BHMS 4 muvofiq |
|---|------------------------------------|------------------------|---------------------------------|
| FIFO (Birinchi kelgan - birinchi ketgan) | Eski zahiralar avval chiqariladi | Haqiqiy qiymatga yaqin | Ha |
| O'rtacha og'irlik narxi | Barcha zahiralar o'rtacha narxda | Hisoblash soddaligi | Ha |
| Aniq identifikatsiya | Har bir birlik alohida hisoblanadi | Eng aniq natija | Ha (qimmatbaho TMZ) |
| LIFO usuli | Oxirgi kelgan - birinchi ketgan | Soliq optimizatsiyasi | Yo'q (BHMS da ruxsat etilmagan) |

*Manba: O'zR BHMS 4-son "Zahiralar", 20-22-moddalar.

3-jadvalda TMZlarni (Tovar-moddiy zahiralar) baholash usullarining qiyosiy tahlili keltirilgan. Bu usullar korxonaning foydasi, soliq majburiyatlari va aktivlarining balans qiymatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi va raqamli transformatsiya

jarayonlari bilan birga ishlab chiqarish korxonalarida elektron hujjat aylanishini joriy etish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi qonuni va tegishli me'yoriy hujjatlar EDAning huquqiy asosini belgilaydi.



3-rasm. Qog'ozli va elektron hujjat aylanishi samaradorligi taqqoslamasi

3-rasmda tahlillar shuni ko'rsatadiki, korxonada Elektron hujjat aylanishini (EDA) joriy etish nafaqat vaqtni tejash (90 ball), balki boshqaruv nazoratini (92 ball) ham maksimal darajaga ko'taradi. Ayniqsa, TMZ hisobini yuritishda hujjatlarning shaffofligi va xatolarning kamligi moliyaviy hisobotlarning aniqligini ta'minlovchi eng asosiy omildir.

4-jadval

Qog'ozli va elektron hujjat aylanishining qiyosiy tahlili

| Mezon | Qog'ozli hujjatlashtirish | Elektron hujjat aylanishi (EDA) |
|-------------------------------|---------------------------|---------------------------------|
| Hujjat rasmiylashtirish vaqti | 2-5 kun | Bir necha soat |
| Xato ehtimoli | Yuqori (inson omili) | Past (avtomatik nazorat) |
| Arxivlash xarajatlari | Yuqori (jismoniy saqlash) | Past (bulut xizmatlari) |
| Hujjat qidirish vaqti | 30-60 daqiqa | Bir necha soniya |
| Real vaqt nazorati | Mumkin emas | To'liq imkoniyat |
| Me'yoriy muvofiqlik | Qo'lda tekshiruv | Avtomatik tekshiruv |
| Dastlabki investitsiya | Past | O'rta/Yuqori |
| Uzoq muddatli tejash | Kam | Katta (40-60%) |

4-jadval tahlilidan ko'rinib turibdiki, zamonaviy korxonalarda Elektron hujjat aylanishiga (EDA) o'tish strategik zaruriyatdir. Dastlabki investitsiyalar yuqori bo'lishiga qaramay, uzoq muddatli tejov (60 foizgacha) va real vaqt rejimida nazorat o'rnatish imkoniyati korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi asosiy omillar hisoblanadi.

EDA joriy etishning asosiy afzalliklari:

- ❖ Xatolar sonini sezilarli darajada kamaytirish - avtomatik format va mantiqiy nazorat orqali;

- ❖ Hujjatlarni rasmiylashtirish va qayta ishlash tezligi - kunlardan soatlarga qisqarish;

- ❖ Nazoratni kuchaytirish - real vaqt rejimida kuzatish imkoniyati;

- ❖ Resurslarni tejash - qog'oz va fizik arxivlash xarajatlarini 40-60 foizga kamaytirish;

- ❖ Me'yoriy muvofiqlik - qonunchilik talablariga avtomatik moslashtirish.

Xulosa va takliflar.

Ishlab chiqarish korxonalarida tovar moddiy zahiralarning harakatini hujjatlashtirish korxonaning samarali faoliyat yuritishi va moliyaviy barqarorligi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Elektron hujjat aylanishi (EDA) va avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy etish inson omilidan kelib chiqadigan xatolarni kamaytiradi va boshqaruv qarorlari uchun ishonchli baza yaratadi.

Yuqoridagi olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida, bir nechta tavsiyalar

shakllantirishga muvofiq bo'ldik, ular quyidagicha:

❖ Elektron hujjat aylanishi va avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy etishni davom ettirish;

❖ Ichki nazorat tizimini takomillashtirish va muntazam inventarizatsiya o'tkazish;

❖ Buxgalteriya siyosatini qonunchilikdagi o'zgarishlarga mos ravishda yangilab borish;

❖ Javobgar shaxslarning mas'uliyatini va malakasini oshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni (2020-yil 13-apreldagi O'RQ-619-son, so'nggi tahrirlar bilan).

2. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 30.06.2020 yildagi 3259-son qarori bilan tasdiqlangan Buxgalteriya hisobining milliy standarti (BHMS) № 4 "Tovar-moddiy zaxiralar" (yangi tahrir).

3. International Accounting Standards Board (IASB). IAS 2 "Inventories" (xalqaro standart, BHMS 4-son asosida qo'llaniladi). 2024-yilgi tahrir.

4. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi. Tovar-moddiy zaxiralar hisobi va inventarizatsiyasi bo'yicha qo'llanma (metodik tavsiyalar). Toshkent, 2024.

5. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. Birlamchi hujjatlar shakllari va ularni rasmiylashtirish tartibi to'g'risidagi qaror (№ 3259 va unga tegishli qo'shimchalar). 2020-2025 yillar.

6. Abdurahmonov A.A. Ishlab chiqarish korxonalarida buxgalteriya hisobi (o'quv qo'llanma). Toshkent: "Fan va texnologiya", 2022. - 320 b.

7. Karimov M.M., Xo'jayev Sh.Sh. Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot (darslik). Toshkent: "Iqtisod-moliya", 2023. - 512 b.